INGLIZ, RUS VA O‘ZBEK TILLARIDA TURG‘UN BIRIKMALAR VA ULARNING TASNIFI

Kamila Alisherovna Artikxodjayeva
kamilaartikxodjayeva@gmail.com
1-Umumta‘lim maktabi oliy toifali
ingliz tili o‘qituvchisi
Tel:998997809571

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi turg‘un birikmalar hamda ularning tasnifi yoritilgan. Turli tillardagi turg‘un birikmalarning o‘xshash va farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi, ularning milliy va madaniy xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, frazeologizmlarning tarjima jarayonidagi muammolari va amaliy ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Tadqiqot natijalari til o‘rganuvchilar va tarjimonlar uchun foydali metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Tayanch iboralar: *Turg‘un birikma, maqol, frazeologizm, tarjima, urf- odat, matal, idioma,paremiya, frazeologik butunlik.*

Аннотация: *в данной статье рассматриваются устойчивые выражения в английском, русском и узбекском языках, а также их классификация. Проводится сравнительный анализ сходств и различий устойчивых выражений в разных языках, раскрываются их национальные и культурные особенности. Кроме того, освещаются проблемы перевода фразеологизмов и их практическое значение. Результаты исследования могут служить методической основой для изучающих языки и переводчиков.*

Ключевые слова: *устойчивые выражения, поговорки, фразеологизмы, перевод, культурные особенности, стишки, идиомы, паремия, фразеологическая единство.*

Annotation: *This article examines fixed expressions in English, Russian, and Uzbek languages, as well as their classification. A comparative analysis of similarities and differences of phraseological units across the three languages is provided, highlighting their national and cultural features. The paper also discusses translation challenges of idioms and their practical significance. The findings of the study serve as a useful methodological basis for language learners and translators.*

Key words: *Fixed expressions, proverbs, phraseological units, translation, cultural features, idioms, paremia.*

Kirish. Tilga ta‘rif berar ekanmiz, avvalambor bu inson tafakkurining ifodasi bo‘lib, unda milliy madaniyat, tarix, urf-odat va an‘analar mujassam bo‘ladi. Har bir

xalq o‘zining ko‘p asrlik hayotiy tajribasini til vositasida saqlab qoladi. Shu ma‘noda, turg‘un birikmalar til boyligini, obrazlilik va ifoda kuchini oshiruvchi asosiy vositalardan biri deb yuritiladi. Turg‘un birikmalar tilshunoslikda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, ularning o‘rganilishi lingvistik, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi. Ular so‘zlarning grammatik va semantik jihatdan o‘zaro bog‘langan, doimiy shaklda ishlatiladigan, umumiy ma’noga ega bo‘lgan ifodalardir. Ular tarkibidagi so‘zlar ko‘pincha o‘zining dastlabki lug‘aviy ma’nosini yo‘qotib, bir butun ma‘noni anglatadi. Turg‘un birikmalar tilning obrazlilik, ifoda boyligi va milliylik jihatlarini yoritib beruvchi asosiy birliklardandir.

Asosiy qism. O‘zbek va ingliz tillarida turg‘un birikmalarning ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ularni o‘rganish faqat lingvistik emas, balki madaniy, tarjimaviy va pedagogik ahamiyatga ham egadir. Mazkur birikmalarni o‘rganish orqali nafaqat tilni chuqur o‘zlashtirish, balki xalq tafakkuriga xos bo‘lgan nozik jihatlarni ham anglash mumkin bo‘ladi.

Til tizimida turg‘un birikmalar alohida o‘rin egallaydi. Ular tilning barqaror qismi bo‘lib, ma’lum bir nutqiy vaziyatda doimiy shaklda qo‘llanadi va ma‘no jihatidan yaxlit bo‘lib keladi.[1] Turg‘un birikmalar tilning leksik boyligini kengaytirish, xalqning dunyoqarashi va madaniyatini ifodalashda, shuningdek, milliy nutq madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni turli tillarda qiyosiy o‘rganish esa umumiylik va milliy xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Shunday ekan, biz ingliz, rus va o‘zbek tillarida turg‘un birikmalarining turlari va o‘rganilishiga urg‘u berib o‘tamiz.

Ingliz tilshunosligida A.V.Kunin, A.P.Cowie, R.Moon ishlari asosida turg‘un birikmalar quyidagicha tasnif qilinadi: 1)Idioms-idiomatik ifodalar (so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydigan iboralar): (*kick the bucket, spill the beans*);2)Fixed expressions- grammatik va leksik jihatdan doimiy shaklga ega iboralar: (*Ladies and gentlemen, How are you?*);3)Collocations- so‘z birikish qonuniyatlariga asoslangan iboralar: (*make a decision, strong tea*);4) Binomials/trinomials (juft va uchlik birikmalar) (*black and white, pros and cons, lock, stock and barrel*);5) Proverbs and sayings (*The early bird catches the worm);*[2]

Bunda ko‘zga tashlanadigan jihati shuki, o‘zbek va ingliz tillaridagi turg‘un birikmalar o‘rtasida o‘zaro umumiylik va farqlari mavjud: Madaniy asos Milliy mentalitet, urf-odatlar G‘arbiy qadriyatlar, anglosakson tafakkuri.Idiomatiklik darajasi yuqori, ko‘p hollarda obrazli, ba’zida tarixiy kontekstli turlari bilan ajralib turadi.Frazeologizmlar, maqollar, turg‘un birikmalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima

[1] Mamatov A. O‘zbek tilida turg‘un birikmalar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.,121-126.
[2] Cowie A.P.English Phraseology: A Descriptive Analysis. – Oxford: Clarendon Press, 1998.

qilish ham ancha mashaqqatli ish hisoblanadi, chunki biron bir so‘zning ekvivalentini ma‘no jihatdan moslab toppish uchun avvalambor o‘sha birikmaning kelib chiqishi va ma‘nosini birikmadan ajratmagan holda yaxlitligicha bilish lozim.

Ingliz tilidagi o‘ziga xos yana bir jihat bu binomials va set expressionsning mustaqil tur sifatida ajratilishidir. Ular o‘zbek tilidagi “juft birliklar” va “nutqiy qoliplar” bilan ma’lum darajada mos keladi.[3]

Rus tilshunosligida turg‘un birikmalarni o‘rganishda V.V.Vinogradov tasnifi asos qilib olinadi va unda turg‘un birikmalar quyidagicha tasniflanadi:

Фразеологические сращения (fusions) (*вести себя как слон в посудной лавке*); фразеологические единства (unities) (*взять быка за рога*); фразеологические сочетания (collocations) (*принимать участие, оказывать помощь*); пословицы и поговорки (proverbs) (*Без труда не вытащишь и рыбку из пруда);* речевые клише (speech clichés) (*С уважением, Добрый вечер*).[4]

Rus tilidagi asosiy farq, frazeologik birliklarning uch darajali tasnifi (сращения, единства, сочетания) bo‘lib, bu ingliz va o‘zbek tilida uchramaydi.

O‘zbek tilshunosligida turg‘un birikmalar keng qamrovda tasnif qilinadi. Ular tarkibida:

Frazeologik birliklar (*tilingni tiy, ko‘ngli to‘q*); kollokatsiyalar (*ilm olish, do‘st tutmoq); t*erminologik birikmalar (*erkin bozor, qo‘shma gap*); maqol va matallar *(Mehnat,mehnatning tagi rohat*); juft va takroriy birliklar (*asta-sekin, tez-tez*);nutqiy qoliplar (*Assalomu alaykum, Xayrli tun*).

Bu tasnif shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida turg‘un birikmalar nafaqat frazeologiya doirasida, balki xalq og‘zaki ijodi va nutq madaniyatining ham tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Uchala tilda ham turg‘un birikmalar frazeologik birliklar, maqol va matallar, kollokatsiyalar hamda nutqiy qoliplarni o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilida terminologik birikmalar va juft birliklar mustaqil tur sifatida ko‘rsatiladi. Ingliz tilida binomials va set expressions alohida tur sifatida ajratiladi. Rus tilida esa V.V.Vinogradov tasnifi asosida frazeologik birliklar ichida uch bosqichli tabaqalanish mavjud.[5]

O‘zbek, ingliz va rus tillarida turg‘un birikmalar til tizimining barqaror unsurlari bo‘lib, umumiylik va milliy xususiyatlarni mujassam etadi. O‘zbek tilida ular xalq nutqi va madaniyatiga, ingliz tilida nutqiy qoliplar va binomial birliklarga, rus tilida esa chuqur frazeologik tasnifga asoslanadi.[6] Demak, uchala til tizimida ham

[3] Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998

[4] Wilstach F.J. A Dictionary of Similes. – Boston: Little, brown, and company, 1916. – 488 pp.

[5] Кирсанова Н.Н. Сравнение как основа номинации в современном немецком языке: Дисс. …канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1996. – С. 174.

[6] Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3– Б. 21.

turg‘un birikmalar tilning boyligi va xalqning madaniy merosini ifodalovchi muhim qatlam bo`lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, ingliz rus va o‘zbek, tilshunosligida turg‘un birikmalar umumiy jihatdan bir-biriga yaqin tasnif qilinadi. Uchchala til ham idiomalar, kollokatsiyalar, maqol va matallar, juft birliklar va nutqiy qoliplarni o‘z ichiga oladi. Rus tilshunosligida Vinogradovning klassifikatsiyasi (fusion, unity, combination) juda ta‘sirli bo‘lsa, ingliz tilshunosligida Kunin va Cowie nazariyalari keng qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Wilstach F.J. A Dictionary of Similes. – Boston: Little, brown, and company, 1916. – 488 pp.
2. Кирсанова Н.Н. Сравнение как основа номинации в современном немецком языке: Дисс. …канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1996. – С. 174.
3. Лебедова Л.А. Устойчивые сравнение русского языка. Краткий тематический словарь. – Краснодар: Рубанский ГУ, 2003. – С. 300. 8. Бойко Л.Г. Культурно маркированное содержание устойчивых сравнений русского языка: Дисс. …канд. филол. наук. – Волгоград, 2000. -218 с.
4. Akabaraliyeva X.Sh. “Devonu lug‘atit turk” asaridagi somatizm komponentli maqollarning lingvomadaniy xususiyati// Scientific Journal Impact Factor// VOLUME 1 | ISSUE 9 ISSN 2181-1784 SJIF 2021: 5.423. B. 335-339.
5. Кирсанова Н.Н. Сравнение как основа номинации в современном немецком языке: Дисс. …канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1996. – С. 174. Kunin A.V. «Английская фразеология»– Москва: Высшая школа, 1984.
6. Cowie A.P.English Phraseology: A Descriptive Analysis. – Oxford: Clarendon Press, 1998.
7. Karimov Sh. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
8. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3– Б. 21.
9. Rashidova U.M.O‘zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс... – Samarqand, 2018. – Б. 13.
10. Qahhorova Sh.A. O‘zbek tilida barqaror birikmalar va ularning ahamiyati// Международный научный журнал, «Новости образования: исследование в XXI веке» No3(100), часть1 октябрь, 2022 г. B. 392-393.
11. Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998.
12. Mamatov A. O‘zbek tilida turg‘un birikmalar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.